

ULUG'BEK HAMDAM SHE'RIYATIDA METAFORA

Babaxanov Laziz Abdullaxanovich

Angren universiteti “Umumfanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi mudiri.

E-mail: babaxanovlazizxon@gmail.com

Ma'lumki, nutqimizda eng ko'p qo'llaniladigan obrazli vositalardan biri metaforadir. U har qanday sohada tavsif va tushuntirishni yengillashtiradi va til imkoniyatlarini, til egasining ichki olamini namoyon etishga xizmat qiladi. Tuyg'ularni ifodalash kundalik nutqimizga badiiylik olib kiradi, shuning uchun nutqimizda metaforaning o'rni beqiyos. Metafora badiiy matn muallifiga dunyoning individual tasvirini yaratishiga ko'mak beradi.

Metafora nazariyasi tavsifini faqat tilshunoslik doirasida hal qilib bo'lmaydi, u kognitiv jarayonlar maydoniga kirishni talab qiladi. Kognitiv nazariya tadqiqot markaziga inson omilini qo'yadi. U metafora tushunchasini mental: nutqni hosil qilish va idrok etish jarayonlari bilan bog'laydi. Metafora ikki shaxsnинг o'zaro ta'siridan iborat aqliy va lingvistik mexanizm sifatida taqdim etiladi, bu esa atrofdagi voqelik haqida yangi bilimlarni olishga olib keladi.

Til atrofimizdagи voqelikni izomorf vositalar tizimi: insonning atrofdagi olamga munosabati, olamni idrok etish va tasvirlash orqali aks ettiradi. Olamning lisoniy manzarasini tasvirlashda metaforaning o'rni beqiyos. Negaki metafora til hodisasi sifatida olam lisoniy manzarasining bir qismini emas, balki uning butun tasvirini yaratadi.

Metaforani tadqiq etish dastlab Aristotelning qiyoslash yoki o'xshatish nazariyasi asosida rivojlangan bo'lsa, keyinchalik mazkur hodisaga atroflicha va keng yondashuvlarni kuzatish mumkin. Bugungi kunda metaforani kognitiv, antropotsentrik, psixolingvistik, neyrolingvistik, lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil etish natijasida metafora kundalik hayotimizning barcha qatlamiga singib, nafaqat tilda, balki fikrlash va harakatda ham o'zini namoyon qilmoqda. “Inson o'z fikrlarini nafaqat metaforalar yordamida ifodalaydi, balki metaforalar bilan fikrlaydi, metaforalar ko'magida o'zi yashaydigan olamni yaratishi”¹⁶⁶ isbotlandi. Metaforani antropotsentrik yondashuv asosida tadqiq etgan Sh.Maxmaraimova “...u insonning ongosti jarayonlarida panoh topuvchi va tafakkurning xulosalarida faol ishtirot etuvchi hodisa bo'lsa-da, uni instinctiv qo'llash mumkin emas, binobarin, aql bilan in'ikos topgan metaforalargina insoniyat va lison uchun qiymatga egadir” – deya uning tilshunoslikdagi mavqeiga aniqlik kiritadi¹⁶⁷.

B.Sulaymonovning “Sodda nominativ so'zlarning o'xshashlik, aloqadorlik, alternativlik va assotsiativ munosabatlar natijasida semantik evrilishi badiiy tafakkur mahsuli bo'lgan yangi metaforani yuzaga keltirishi”¹⁶⁸ to'g'risidagi qarashi ham metaforaning tadqiq ob'ekti sifatida doimiy dolzarblik kasb etishini ko'rsatadi. Bu o'rinda Sh.Maxmaraimovaning metaforaning istiqboli to'g'risidagi “shiddat bilan rivojlanib kelayotgan kompyuter lingvistikasi bu evrilishni o'zga o'zanga burib yubormasa hamda milliy tillarni tobora o'z komiga tortib borayotgan sun'iylashish jarayoni bu taraqqiyotga halal bermasa, kelajak yillarda to'liq anglangan tadqiq

¹⁶⁶ Чудинов А. П. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры. Монография. — Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т, 2001. — С.7.

¹⁶⁷ Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқики (номинатив аспект). Филол.ф.д-ри (DcS). ...дисс. – Самарқанд, 2020.

¹⁶⁸ Сулаймонов Б.Н. Темирбек Тўрабоевнинг «Теорема» романидаги товуши билан бошланувчи сўзларнинг метафоралашуви ва фраземалашуви. Филол.ф.б.фалсафа д-ри (PhD) дисс.автореф. – Самарқанд, 2020.

ob'ekti – lison va uning inson kamolotidagi ahamiyati borasidagi izlanishlarning amalga oshirilishiga umidimiz bor” fikrini to‘liq qo‘llab-quvvatlagan holda, inson tafakkur etishdan to‘xtamas ekan, metaforalashuv ham qanday ko‘rinishda bo‘lmisin mavjud bo‘lishi va dunyoqarashiga mos ravishda yangilanib borishiga aminmiz.

Shoir Ulug‘bek Hamdam she’riyatida ham mohirlik bilan topilgan xususiy metaforalarga minglab misollar topish mumkin.

*Ikki g‘ordir – ikkita ko‘zim,
 Qalbim unda gizli xazina.
 Vujud – otim, aqlim – jilovim,
 Ming asrdir yo‘Idaman, mana!..*

Mazkur she’riy parchaning har to‘rt misrasi bir-birini to‘ldiruvchi, uzviy bog‘langan metaforaga asoslangan. Shoir inson ikki ko‘zini ikki g‘orga, qalbini shu g‘ordagi sirli xazinaga, butun tanasini otga, aqlini otning jiloviga, inson umrini esa yo‘lga qiyoslash orqali yaxlit metaforik to‘rtlik yaratadi.

Yoki:

*Uyg‘ondim...
 Yuzlarimda quyosh nurlari o‘ynardi...
 Shuurimda tushdan qolgan shirin ta’m...*

Ushbu she’riy parchaning 1-misrasidagi o‘ynamoq harakati insonga xos xatti-harakat bo‘lib, u quyosh nuri harakatiga ko‘chirilgandek, 2-misrasi o‘qilgach esa mazkur quyosh nuri ifodasi ham insonga xos bo‘lgan tabassumning metaforik ko‘rinishi ekanligi anglashiladi. 2-misradagi shirin ta’m ifodasi ham yoqimli hissiyotning metaforalashuvi mahsuli bo‘lib, ayni shu yoqimli hissiyot muallif yuzidagi quyosh nuri bu tabassum ekanligiga ishora qiladi.

Quyidagi she’riy parchada esa tabiatga xos hodisa insonga ko‘chiriladi:

*Yuragimni cho‘qiydi har kun,
 “Tur mush” degan bir qora burgut.*

Ma’lumki, cho‘qish burgutga xos xatti-harakat. Mazkur o‘rinda inson yuragini bezovta qiladigan tur mush tashvishlari qora burgut va uning harakatiga ko‘chiriladi. Shuningdek, burgutga berilgan qora sifati ham tur mushning oddiy kundalik tashvishlari emas, balki muammoli vaziyatlariga ishora qiladi. Buni yurakning bezovta holati cho‘qimoq harakatidan olinadigan og‘riqqa o‘xshatilishidan ham anglash mumkin.

Shoir she’riyatida zamonaviy metaforalarni ham kuzatish mumkin:

*Kuldon qilib oyning yuzini
 Sigarani bosdilar rosa
 Dog‘lar qoldi unda zolimning
 Yuragiga o‘xshagan qora...*

Shoirning “Xunuk o‘xhatish” deb nomlanuvchi mazkur to‘rtligining sarlavhasiyoq she’rning metaforaga asoslanganligiga ishora qiladi. Birinchi misrada kuldonga qiyoslangan oyning yuzi aslida yaxshi inson timsoli. Keyingi misrada tilga olingen sigara insonga qaratilgan tuhmat, g‘iybat-bo‘htonlar. Inson sha’niga qaratilgan yomonliklar oyning yuzidagi qora dog‘lar kabi qalbida iz qoldiradi, deydi shoir. Yurakka qora sifatining berilishi ham bu o‘rinda yomonliklar haqida so‘z ketayotganligidan darak beradi.

Ko‘rinadiki, U.Hamdam she’riyatida misralararo o‘zaro uzviy bog‘langan metaforik qo‘llanishlar uchraydi. Bu esa adib asarlarini shunchaki emas, chuqur fikrlab, mulohazakorlik bilan anglab o‘qishga undaydi. U.Hamdam she’riyatida olamning lisoniy manzarasi g‘oyat ta’sirli,

rang-barang, obrazli etib tasvirlanish bilan birga individualdir. Bunda shoirga metafora eng muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Чудинов А. П. Россия в метафорическом зеркале: когнитивное исследование политической метафоры. Монография. — Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т, 2001. — С.7.
2. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект). Филол.ф.д-ри (DcS). ...дисс. — Самарқанд, 2020.
3. Сулаймонов Б.Н. Темирбек Тўрабоевнинг «Теорема» романида «т» товуши билан бошланувчи сўзларнинг метафоралашуви ва фраземалашуви. Филол.ф.б.фалсафа д-ри (PhD) дисс.автореф. — Самарқанд, 2020.